| 2 | **Tanlov tashkilotchisi** | 2.1 | "O'zbekneftgaz" AJ Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi tanlov buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi") hisoblanadi.<br>"Buyurtmachi" manzili: Index 180320, Qashqadaryo vil. G`uzor tum. Sho'rtan qo'rg`oni. |
| | | 2.2 | Tashkilotchining muloqot qiluvchi shaxsi: +99875-552-67-48<br>email: **shurtanneftegaz@ung.uz** |
| | | 2.3 | "O'zbekneftgaz" AJ Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi Tanlov komissiyasi tanlov buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "Ishchi organ") hisoblanadi.<br>"Buyurtmachi" manzili: Indeks 180320, Qashqadaryo vil. G`uzor tum. Sho'rtan qo'rg`oni. |
| | | 2.4 | Tanlov Buyurtmachi tashkil qilgan kamida o'n uch kishidan iborat tarkibdagi tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. |
| 3 | **Tanlov ishtirokchilari** | 3.1 | Tanlovda mulkchilik shaklidan qat`iy nazar istalgan yuridik shaxslar, shu jumladan, kichik biznes sub`ektlari ishtirok etishi mumkin (4.2 bandda keltirilgan shaxslar bundan mustasno). |
| 4 | **Tanlovni o'tkazish sharti** | 4.1 | Tanlovda ishtirok etish uchun, tanlov ishtirokchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:<br>a) tanlov shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlov hujjatlarining elektron nusxasini olish (ko'chirish);<br>b) tanlov hujjatlar shartlariga muvofiq tanlov hujjatlarini topshirish. |
| | | 4.2 | Quyidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi: |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik bosqichini boshidan kechirayotgan;<br>"Buyurtmachi" bilan sudda yoki hakamlik sudda tortishayotgan;<br>Nohalol ijrochilarning yagona ro'yxatiga kiritilgan;<br>soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi bor;<br>imtiyozli soliq rejimini beruvchi va/yoki moliyaviy amaliyotlarni o'tkazishda ma`lumotlarni oshkor qilish va berishni ko'zda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor zonalar) ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlariga ega bo'lgan. |
| | | 4.3 | Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish taomilida ishtirok etishdan chetlashtiradi:<br>Ishtirokchi to'g`ridan to'g`ri yoki vositali tarzda buyurtmachining, yoki boshqa davlat organining hozirgi mansabdor shaxsiga yoki sobiq xodimiga davlat xaridlari jarayonida biron-bir harakatni amalga oshirish, qaror qabul qilish yoki biron-bir tanlov taomilini qo'llashga ta`sir ko'rsatish maqsadida har qanday shakldagi mukofot, ishga olishni yoki har qanday qimmatbaho buyum yoki xizmat ko'rsatishni taklif qilgan, bergan yoki bunga rozi bo'lgan taqdirda;<br>ishtirokchi adolatsiz tanlov ustunligiga ega bo'lsa yoki qonunga zid bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa. |
| 5 | **Tanlov tili.** | 5.1 | Tanlov taklifi, ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan u bilan bog`liq bo'lgan barcha yozishmalar, hujjatlar o'zbek va rus tillarida amalga oshiriladi. |
| 6 | **Tanlov taklifi va unirasmiylashtirish tartibi** | 6.1 | Tanlov ishtirokchilari, mazkur tanlov hujjatlarining **1-ILOVASIDA** ko'rsatilgan hujjjatlarni o'z ichiga olgan takliflarini e`londa belgilangan tartibda elimlangan konvertlarda tanlov o'tkazilishi haqidagi e`londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha taqdim qiladi. |
| | | 6.2 | Tanlov ishtirokchilariga takliflarni varaqlari tikilgan, nomer qo'yilgan, muhrlangan va ishtirokchi vakolatli shaxs imzosi bilan tasdiqlangan yoki taklifning har bir beti imzolangan holda taqdim etish tavsiya qilinadi. |
| | | 6.3 | Ishtirokchining tanlov taklifi tanlov komissiyasi tomonidan ishchi organga pochta orqali yoki ishtirokchi vakolatli shaxsi orqali etkaziladi. Tanlov taklifi berilishi sanasi va vaqti ishchi organ tomonidan tanlov takliflarini ro'yxatga olish jurnalida qayd qilinadi va ishtirokchi vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlanadi (agarda u mavjud bo'lsa). |
| | | 6.4 | Tanlov ishtirokchisi:<br>taqdim qilinayotgan ma`lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun ma`sul hisoblanadi;<br>taqdim qilingan taklifni bunday takliflarni berish muddati tugaguncha qaytarib olish yoki unga o'zgartirish kiritishga haqli. |
| | | 6.5 | Tanlov taklifi tanlov shartlariga mos bo'lgan va quyidagi ma`lumotlarni qamrab oluvchi narxga oid qismdan tashkil |

| | | |
|---|---|---|
| | | topadi: xizmatning nomlanishi, xizmat ko'rsatish qiymati, yakuniy summa, to'lov shartlari, taklifning amal qilishi muddati (taklif amal qilish muddati kamida 29 kun) va h.z. |
| | 6.6 | Ishtirokchi shuningdek Taklifning 1 nusxasini tashqi tashuvchi (kompakt-disk, flesh-xotira va Elektron tarzda) tayyorlab, unda butun tanlov hujjatlari skaner qilingan, rahbar imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan holda taqdim qilishi mumkin. Narxga oid taklif ham boshlang`ich shaklda beriladi (Microsoft Office). |
| | 6.7 | Narxga oid takliflar mavjudligiga talablar:<br>Narxga oid taklif va narxlar jadvali ushbu yo'riqnomaga ilova qilinadigan **6-SHAKLGA** muvofiq holda. |
| | 6.8 | Tanlov takliflari<br>**<u>Elektron korparatsion portal E-xarid.uzex.uz da rasman e`lon qilingandan so'ng 5 kun muddat ichida quyidagi manzil bo'yicha qabul qilinadi</u>**: "Buyurtmachi" manzili: Indeks 180320, Qashqadaryo vil. G`uzor tum. Sho'rtan qo'rg`oni, email: **shurtanneftegaz@ung.uz**<br>**Tanlov komissiyasi yig`ilishi o'tkaziladigan vaqt**<br>**<u>Elektron korparatsion portal E-xarid.uzex.uz da rasman e`lon qilingandan so'ng 5 kun muddat o'tkach tanlov komissiyasi tomonidan belgilangan kunda amalga oshiriladi</u>.** |
| | 6.8 | Ishtirokchilarning tanlov takliflari amal qilishi muddati, taqdim qilingan tanlov takliflari taqdim qilinishi tugallangan kundan boshlab 29 kundan kam bo'lmasligi kerak. |
| 7 **Taqdim qilingan tanlov takliflari muddatini uzaytirish** | 7.1 | Zarur hollarda, buyurtmachi tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirishi, shuningdek tanlov ishtirokchilariga tanlov komissiyasi qaroriga ko'ra takliflari amal qilish muddatini uzaytirish to'g`risidagi taklif bilan murojaat qilishi mumkin. |
| | 7.2 | Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish to'g`risida tanlov ishtirokchilariga elektron yoki yozma ravishda ko'rsatilgan manzilga yoki tashkilotchi muloqot qilishi mumkin bo'lgan shaxs orqali e`lon qilinadi. |
| 8 **Tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish** | 8.1 | Zarur hollarda buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish haqida qaror qabul qilishi mumkin.<br>Tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish haqida qaror takliflarni taqdim qilish muddati tugashidan kamida uch kun avval qabul qilinishi mumkin.<br>Tanlov takliflariga o'zgartishlar kiritish jarayonida<br>Mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki ularning tavsiflari o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.<br>Takliflarni berish muddati tugagan paytda, tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilganda, tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan boshlab, kamida besh kunga uzaytiriladi.<br>Ayni paytda e`londa ko'rsatilgan ma`lumot o'zgartirilgan taqdirda, tanlovni o'tkazish haqidagi e`longa ham o'zgartishlar kiritiladi. |
| 9 **Tanlov takliflari solingan konvertlarni ochish** | 9.1 | E`londa tanlovni o'tkazish sanasi sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlov takliflarini baholash bo'yicha tanlov komissiyasi, |

| | | |
|---|---|---|
| **taomili va ularni baholash mezonlari** | | tanlov ishtirokchilari bergan takliflar solingan kovertlarni ochadi. Tanlov ishtirokchisining vakolatli vakili konvertlarni ochish jarayonida ishtirok etishga haqli. |
| | 9.2 | Tanlov ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati tanlov takliflari berilishi yakunlangan sanadan boshlab o'n kundan oshmasligi kerak. |
| | 9.3 | Takliflar solingan konvert ochilganda unda barcha hujjatlarning borligi va ular to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Konvertda tegishli hujjatlar bo'lmagan taqdirda tanlov komissiyasi uni ko'rib chiqish va baholashga qo'ymaslikka haqli. |
| | 9.4 | Tanlov komissiyasi rad qilinmagan takliflar baholab, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tanlov g`olibini aniqlaydi. |
| | 9.5 | Tanlov ishtirokchisi taqdim qilgan hujjatlardagi ma`lumotlarning soxtaligi aniqlansa, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlashtirishga haqli. |
| | 9.6 | Tanlov takliflarini baholash va tanlov g`olibini aniqlash tanlov hujjatlarida bayon qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi **(2-ILOVA).** |
| | 9.7 | Taklif Qonun, qaror va tanlov hujjatlari talablariga javob bersa, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan, deb hisoblanadi. |
| | 9.8 | Tanlov komissiyasi taklifni bergan tanlov ishtirokchisi Qonun, qaror va tanlov hujjatlari talablariga javob bermasa, yoki tanlov ishtirokchisining taklifi tanlov xujjatlari talablariga mos bo'lmasa, taklifni rad etadi. |
| | 9.9 | Tanlov takliflarini baholash jarayonida tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilaridan ularning tanlov takliflari bo'yicha tushuntirishlar so'rab olishga haqli. Ushbu taomil rasmiy ravishda, yozma shaklda tanlov ishtirokchilari orqali o'tkaziladi. Tushuntirish jarayonida taklifni mazmuni, shuningdek narxi bo'yicha biron-bir o'zgartish kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. |
| | 9.10 | Agar tanlov ishtirokchilari tanlov takliflarini turli valyutalarda ko'rsatsa, takliflar summalari ularni baholash paytida konvertlar ochilgan sana bo'yicha tanlov taklifining narxga oid qismi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha yagona valyutada hisob-kitob qilinadi. |
| | 9.11 | Tanlov hujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g`olib deb topiladi. |
| | 9.12 | Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lgan taqdirda tanlov komissiyasi, bu haqda tanlov ishtirokchisini xabardor qilgani holda, tanlov taklifini rad etishga yoki ularni kelgusida ko'rib chiqish bo'yicha boshqa shartlarni belgilashga haqli. |
| | 9.13 | Tanlovning xorijiy va mamlakatdagi ishtirokchilari narxlarini adolatli taqqoslash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda, baholash paytida tegishli xarajatlar (soliqlar, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | bojxona to'lovlari va boshqa majburiyatlar) hisobga olinadi |
| | | 9.14 | Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baholashni qayd qilish bayonnomasida qayd qilinadi. |
| | | 9.15 | Takliflarni ko'rib chiqish va baholashni qayd qilish bayonnomasi tanlov komissiyasining barcha a`zolari tomonidan imzolanadi, va undan ko'chirma u imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida chop etiladi. |
| | | 9.16 | Takliflarni ko'rib chiqish va baholashni qayd qilish bayonnomasi e`lon qilinganidan so'ng tanlovning har qanday ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov natijalarini tushuntirish bo'yicha so'rov yuborishga haqli. Bunday so'rov kelib tushgan paytdan boshlab uch ish kuni davomida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlar berishga majbur. |
| 10 | **Tomonlar ma`suliyati va maxfiylikka rioya qilish** | 10.1 | O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan javobgarlik quyidagilarga yuklatiladi:<br>kelib tushayotgan tanlov takliflari hisobini yuritayotgan, ularning butligi va maxfiyligini ta`minlayotgan ishchi organ tarkibiga kiruvchi shaxslar<br>komissiya raisi va a`zolari, shuningdek tanlov takliflarini o'rganish uchun tashkil qilingan ishchi guruh a`zolari ma`lumotlarni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a`zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirishga yo'l qo'yish, shuningdek boshqa noqonuniy xatti-harakatlar uchun.<br>shartnoma bo'yicha majburiyatlarni (miqdor, sifat va texnik ko'rsatkichlar bo'yicha) bajarmagan tanlov g`olibi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan tarzda javobgar hisoblanadi. |
| 11 | **Boshqa shartlar** | 11.1 | Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirishlar olish uchun ishchi organga murojaat qilishga haqli. |
| | | 11.2 | Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov o'tkazilishi haqidagi e`londa keltirilgan shakldagi tanlov hujjatlari qoidalari bo'yicha tushuntirishlar berish haqida so'rov yuborishga haqli. Ushbu so'rov buyurtmachiga takliflar berilishi yakunlanishi sanasidan kamida ikki kun avval kelib tushgan taqdirda buyurtmachi ko'rsatilgan so'rov kelib tushgan sanadan boshlab ikki ish kuni davomida belgilangan shaklda tanlov hujjatlari qoidalari bo'yicha tushuntirishlar yuborishga majbur. Tanlov hujjatlari qoidalari bo'yicha tushuntirishlar uning mazmuniga zid bo'lmasligi kerak. |
| | | 11.3 | Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tanlovni bo'lib o'tmagan deb e`lon qilishi mumkin:<br>tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan taqdirda;<br>takliflarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha tanlov komissiyasi barcha takliflarni tanlov hujjatlari talablariga mos emasligi tufayli rad etgan taqdirda. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 11.4 | G`olib chiqqan taklif aktseptigacha buyurtmachi istalgan paytda tanlovni bekor qilishi mumkin. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi maxsus axborot portalida bunday qarorning asosli sabablarini chop etadi. |
| 12 | **Shartoma tuzilishi** | 12.1 | Tanlov natijalarga ko'ra shartnoma u bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim qilinayotgan tanlov hujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan shartlarda tuziladi. |
| | | 12.2 | Tanlov komissiyasi tomonidan g`olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi buyurtmachidan tegishli yozma xabarnoma oladi. |
| | | 12.3 | Tanlov g`olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda, shartnoma tuzish huquqi zahiradagi ijrochiga o'tadi. Bunda zahiradagi ijrochi tanlov g`olibi taklif qilgan narxlarda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. |

## II. TEXNIK QISMI

**"Sho'rtan koni 4-DRIP ga olib boruvchi avtomobil yo'li qurilishi (L=360 metr)"**

2021392014 ПЗ.ВП 27.04

**«УТВЕРЖДАЮ»**

**Главный инженер**
**Шуртанского НГДУ**

O'ZBEKNEFTGAZ AJ SHURTAN NEFTEGAZQAZIBCHIQARISH BOSHQARMASI HUJJATLAR UCHUN

**__________Неъматов З. Б.**

**«23» 11 2021 г.**

# Дефектный акт

По объекту. Шуртан кони 4-ДРИП га олиб борувчи автомобил йули курилиши. (L=360 метр).

| № | ШНК (сборник) | Наименование работ затрат, характеристика, оборудование и его масса | Ед. изм. | Объект измерения |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Сборник №1 | Планировка площадей механизированным способом, группа грунтов 2 | 1000м2 | 3,36 |
| 2 | Сборник №1 | Устройство сливной призмы и кюветов в выемках, группа грунтов 2 | 100м3 | 1,8 |
| 3 | Сборник №27 | Устройство оснований и покрытий из песчано-гравийных смесей двухслойных толщиной 25 см | 1000м2 | 3,0 |
| 4 | ШНК4.04.06-14 | Перевозка песчано-гравийных смесь автомобилем самосвалам грузоподъёмностью до 25 тн на расстояние до 75 км | Тн | 1200 |

**Начальник ОКС и Р:** **Э. Дусмурадов**

**Инженер ОКС и Р:** **Т. Рахматуллаев**

**Начальник Промысла Шуртан:** **Э. Хамраев**

## III. NARXGA OID QISMI

1. Tanlov narxi:

| № | Ob`ektning nomlanishi | Ob`ekt soni | Eng yuqori narxi | | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **" Sho'rtan koni 4-DRIP ga olib boruvchi avtomobil yo'li qurilishi (L=360 metr)"** | **1** | **113 690 665** so'm QQS siz | **130 744 264,75** so'm QQS bilan | 30 kun |

2. Moliyalashtirish manbai: **"O'zbekneftgaz" AJ** o'z mablag`lari hisobidan.
3. Ishni bajarish shartlari: Umumiy qurilish va kapital ta`mirlash ishlari ko'zda tutilgan eng yuqori narxdan oshib ketmasligi, ishni topshirish tegishli me`yoriy qurilish xujjatlari asosida to'liq va to'g`ri topshirilishi lozim.
4. To'lov shartlari: 15% avans, qolgani loyiha – smeta hujjatlari qabul qilib olinib tegishli tartib ekspertiza xulosalari olingandan so'ng.
   To'lov valyutasi: so'm.
5. Tanlov savdolari muddati e`londa ko'zda tutilgan muddatda.

1-ilova

## MALAKAVIY HUJJATLARRO’YXATI

**1.** Tanlovda ishtirok etish uchun ariza *(1-shakl).*

**2.** Ishtirokchi qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik, buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik sudida tortishuv holatida emasligi, shuningdek avval tuzilgan shartomalar bo’yicha kerakli tarzda bajarilmagan majburiyatlar yo’qligini tasdiqlovchi kafolat xati *(2-shakl).*

**3.** Tanlov ishtirokchisi haqidagi umumiy ma`lumotlar *(3-shakl).*

**4.** Ish tajribasi *(4-shakl).*

**5.** Tanlov ishtirokchisining moliyaviy holati (5-shakl)

**6.** Narxga oid taklif (6 shakl).

**7.** Texnik ko’rsatkichlar bo’yicha qiyosiy jadval (7-shakl);

**8.** Konvert usti nomlanishi (8-shakl)

**9.** Guvohnoma nusxasi

**10.** Litsentsiya nusxasi *(litsenziya talab qilinadigan faoliyat bo’lsa)*

**1-shakl**

*ISHTIROKCHINING FIRMALI BLANKASIDA*

*№:*___________ *Sanasi:*
_______

**"O'zbekneftgaz" AJ Sho'rtan NGQCHB**
**Tanlov komissiyasisiga**

**ARIZA**

_____________ *(taklif qilinayotgan xizmat turini ko'rsatish)*tanlov hujjatlarini o'rganib chiqib, ushbu hujjat bilan ularning olinganligini tasdiqlagan holda, _____________ MCHJ*(tadbirkorlik shakli),* tanlov hujjatlariga muvofiq mazkur tanlovda ishtirok etmoqchimiz.

SHu munosabat bilan tashqi konvertda,______ varaqda tanlov hujjatlarini yo'llamoqdamiz.

Malakaviy hujjatlar, shuningdek, tanlov taklifida keltirilgan ma`lumotlar va hujjatlar to'liq va ishonchli ekanligini kafolatlaymiz.

O'z navbatida, biz ushbu tanlovga tegishli ma`lumotlarning tanlov taklifini tayyorlash va taqdim etish bilan bog`liq bo'lmagan shaxslarga yoki tashkilotlarga oshkor qilinmasligini kafolatlaymiz.

Muloqot uchun telefon/faks: __________

Elektron pochta: ______________________

F.I.O.______________________________ _______ imzo

*Muhr o'rni*

**2-shakl**

*ISHTIROKCHINING FIRMALI BLANKASIDA*

*№:*___________ *Sanasi:* ________

**"O'zbekneftgaz" AJ Sho'rtan NGQCHB**
**Tanlov komissiyasisiga**

**KAFOLAT XATI**

Ushbu bilan shuni tasdiqlaymizki, ____________________________ MCHJ:

- Qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik holatida emas.
- "O'zbekneftgaz" AJ SHo'rtan NGQCH boshqarmasi bilan sudda yoki hakamlik sudida tortishuv holatiga emas.
- Avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha kerakli tarzda bajarilmagan majburiyatlari yo'qligini;
- Insofsiz ijrochilarning yagona ruyxati (http://xarid.uz/unfairexecutor) mavjud emasligmizni kafolatlaymiz.

| | | |
|---|---|---|
| ___________ MCHJ rahbari | imzo /muhr | F.I.O. |
| ___________ MCHJ bosh hisobchisi | imzo | F.I.O. |
| ___________ MCHJ yuristi | imzo | F.I.O. |

3-shakl

## Tanlov ishtirokchisi haqidagi umumiy ma`lumot

| | | |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda yuridik shaxsning to'liq nomlanishi | |
| 2 | Ro'yxatga olish haqidagi ma'lumot (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga oluvchi organ nomlanishi) | |
| 3 | YUridik manzili | |
| 4 | Muloqot uchun telefon, faks, e-mail | |
| 5 | To'liq bank rekvizitlari | |
| 6 | Asosiy faoliyat turlari | |
| 7 | Xodimlari soni | |
| 8 | INN | |
| 9 | OKONX | |
| 10 | QQS to'lovchi yoki to'lovchi emasligi | |

## 1. XODIMLAR TO'G`RISIDAGI MA`LUMOT

Rahbar va uning o'rinbosarlari:

| t/r № | **Egallab turgan lavozimi** | **F.I.O.** | **Ma`lumoti** (o'quv yurti, ixtisoslik, diplom № va berilgan sanasi) | **Ish tajribasi** (yil) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| | | | | |

Asosiy xodimlar

| t/r № | **Egallab turgan lavozimi** | **F.I.O.** | **Ma`lumoti** (o'quv yurti, ixtisoslik, diplom № va berilgan sanasi) | **Ish tajribasi** (yil) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| | | | | |

__________ MCHJ rahbari imzo /muhr F.I.O.

Sana: 2022 yil «_____»_______________.

**4-shakl**

**TANLOV ISHTIROKCHISINING MOLIYAVIY HOLATI** ______________________________
(tanlov ishtirokchisining nomlanishi)

## 1. MOLIYAVIY MA`LUMOTLAR

*ming so'm*

| Moddalar nomlanishi | So'nggi uch yil uchun ma`lumotlar | | |
|---|---|---|---|
| | 201_y | 201_y | 201__y |
| **Balans hisobotidan ma`lumotlar** | | | |
| **Aktivlar** | | | |
| **I. Uzoq muddatli aktivlar** | | | |
| Asosiy vositalar | | | |
| *Nomoddiy aktivlar* | | | |
| Uzoq muddatli investitsiyalar | | | |
| *SHu jumladan: kapital qo'yilmalar* | | | |
| | | | |
| **II. Joriy aktivlar** | | | |
| Tovar-moddiy zahiralar | | | |
| *SHu jumladan: ishlab chiqarish zahiralari* | | | |
| Debitorlar | | | |
| Pul mablag`lari | | | |
| | | | |
| **Passivlar** | | | |
| **I. O'z mablag`lari manbalari** | | | |
| *SHu jumladan:* | | | |
| *Ustavkapitali* | | | |
| *Taqsimlanmagan foyda* | | | |
| **II. Majburiyatlar** | | | |
| Uzoq muddatli majburiyatlar | | | |
| Joriy majburiyatlar | | | |
| SHu jumladan: | | | |
| *Joriy kreditor qarzdorlik* | | | |
| *Muddati o'tgan kreditor qarzdorlik* | | | |
| **Moliyaviy natija haqidagi hisobotdan ma`lumot** | | | |
| Mahsulotni sotishdan olingan sof foyda | | | |
| Daromad solig`i to'laguncha olingan foyda | | | |
| Sof foyda | | | |

Balans foydasi______________________________________________

__________ MCHJ rahbari imzo /muhr F.I.O.

__________ MCHJ bosh buxgalteri imzo /muhr F.I.O.

Sana: 2022 yil «_____»_______________.

## O'XSHASH OB`EKTLAR BO'YICHA SO'NGGI 3 YIL DAVOMIDA ISH TAJRIBASI

__________________________________________________________________

(tanlov ishtirokchisi nomlanishi)

| № | Ob`ektning (ish) nomlanishi | Buyurtmachi | Bajarilgan yil |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

**Izoh:** *Ushbu shaklda ishtirokchi asosiy ish turlari (yiriklashtirilgan holda) ko'rsatishi mumkin. SHaklda ko'rsatilgan ma`lumotlarni tasdiqlash uchun, shartnoma nusxalari ilova so'ralishi mumkin.*

___________ MCHJ rahbari imzo /muhr F.I.O.

Sana: 2022 yil «_____»________________.

**6-shakl**

*FIRMALI BLANKADA*

# NARXGA OID TAKLIF

(*xizmat nomi ko'rsatiladi*) bajarib berish bo'yicha

Sana: (*tanlov taklifi berilgan sana yoziladi*).

KIMGA: ______________________________________ Tanlov komissiyasiga.

Biz, tanlov hujjatlari va ishni bajarib berish jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan talablar bilan to'liq tanishib chiqqanimizni ma`lum qilamiz.

Barcha talablarni tahlil qilgan holda, tanlov savdosi shartlariga muvofiq (*etkazib beriladigan mahsulot nomi yoki xizmat turi*)ni etkazib berishni taklif qilamiz:

–haq to'lash shartlari - ________________________;

–xizmat ko'rsatish shartlari - ________________________;

–xizmat ko'rsatish muddati - ___________________________.

–taklif qilinayotgan narx - ____________________________*(raqam va so'zda yoziladi).*

Biz, Tanlov takliflarini qabul qilish tugallangan kun deb belgilangan sanadan boshlab 20 kun davomida ushbu taklif amal qilishga rozimiz. Ushbu Tanlov taklifi biz uchun majburiy bo'lib qoladi va ko'rsatilgan davr yakunlangungacha istalgan paytda qabul qilinishi mumkin.

Biz tanlov komissiyasi eng past narxli taklifni emas, balki barcha ko'rsatkichlar va baholash mezonlari bo'yicha eng yaxshi taklifni qabul qilishi kerakligini tushunamiz.

Sana: 2022 yil «___» __________

___________ MCHJ rahbari imzo /muhr F.I.O.

**7-shakl**

**Tanlov shartlarida belgilangan texnik topshiriqlar bo'yicha**
**______________________ MCHJ tomonidan taklif qilinayotgan ishlarning qiyosiy jadvali**

| № | Bajarilishi kerak bo'lgan ishlarning ko'rsatkichi | Ishtirokchi taklif etayotgan ko'rsatkich | Izoh (mos keladi/mos kelmaydi) |
|---|---|---|---|
| | *Tanlov _____ (etkazib beriladigan mahsulotning nomlanishi)* | | |
| 1 | | | |
| 2 | | | |
| 3 | | | |
| 4 | | | |
| | | | |
| | | | |

__________ MCHJ rahbari imzo /muhr F.I.O.

*8-shakl*

<table>
<tr><td>______________________________nomidan<br>[Ishtirokchi nomlanishi va pochta manzili]</td><td>“O’zbekneftgaz” AJ Sho’rtan NGQCH boshqarmasi<br>Indeks 180320, Qashqadaryo vil. G`uzor tum. Sho’rtan qo’rg`oni,<br>email: shurtanneftegaz@ung.uz<br>Xarid komissiyasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tanlov komissiyasi o’tkaziladigan vaqtga qadar OCHILMASIN<br>“Sho’rtan koni 4-DRIP ga olib boruvchi avtomobil yo’li qurilishi (L=360 metr)”</td></tr>
<tr><td colspan="2">Taklif kelib tushgan payt: sanasi 2022 yil «____» __________.<br>Vaqti ______ soat _____daqiqa</td></tr>
</table>

*Tijorat takliflari konvertlarni qabul qilish tanlov tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi:
FIO. tel.: ___________________________.

**Sho’rtan koni 4-DRIP ga olib boruvchi avtomobil yo’li qurilishi bo’yicha (L=360 metr)**
**KELISHUV VAROG’I**

| | |
|---|---|
| Kapital qurilish va ta`mirlash bo’limi boshlig`i v.v.b.: | E.E.Do’smuradov |
| Kapital qurilish va ta`mirlash bo’limi bosh mutaxassisi: | SH.A.Xudoynazarov |
| Kapital qurilish va ta`mirlash bo’limi muxandisi: | T.A.Raxmatullayev |